

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. I.17.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**ABIYEV DAVRON ILXOMOVICH**

**TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH**  
**YO'LLARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (PhD) диссертации**

**Contents of the doctoral (PhD) dissertation abstract**

**Abiyev Davron Ixomovich**

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari ..... 3

**Абиев Даврон Илхомович**

Пути повышения инвестиционной активности коммерческих банков.....27

**Abiev Davron Ikhomovich**

Ways to increase the investment activity of commercial banks ..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. I17.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**ABIYEV DAVRON ILXOMOVICH**

**TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH**  
**YO‘LLARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3242 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ataniyazov Jasurbek Xamidovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xaydarov Nizomiddin Xamrayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Toshpulatov Davron Akromovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12.05 soat 16:00 da majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 60A uy. Tel.: (99871)234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1638 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" 04 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "12" 04 dagi 31- raqamli reyestr bayonnomasi).



  
**T.Z. Teshabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

  
**A.X. Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi v.v.b., iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

  
**I.N. Qo'ziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy-seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor



## **KIRISH falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda yuz berayotgan makroiqtisodiy o'zgarishlar, xalqaro moliya bozorlaridagi konyunkturaviy tebranishlar, yuqori inflyatsion kutilmalar, moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning yuqoriligi sharoitida global darajada investitsion oqimlarning qisqarishi va banklarning kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortishi bilan bog'liq holatlar tijorat banklari investitsion faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global darajadagi hajmi 2022-yilga nisbatan 2 foizga kamayib, 1,3 trln. AQSh dollarini tashkil etgan, infratuzilmani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihaviy moliyalashtirish hajmi esa 26 foizga pasaygan"<sup>1</sup>. Bu ko'rsatkichga global iqtisodiyotdagi konyunkturaviy tebranishlar tufayli jahonning ko'plab mamlakatlaridagi moliyaviy institutlar investitsion faolligining pasayishi sabab bo'ldi. Bu sharoitda tijorat banklari investitsion faolligini oshirish maqsadida arzon resurslarni jalb qilish, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirish, past riskli va yuqori daromadli aktivlarga resurslarni yo'naltirish bilan bir qatorda investitsiya portfeli sifatini yaxshilash, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sinditsiyalashtirilgan kreditlardan foydalanishga alohida e'tibor berishni taqozo etmoqda.

Jahonda tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish, "yashil" loyihalarga resurslarni yo'naltirish, investitsion loyihalarning risklilik va foydalilik darajasini aniqlash, investitsion loyihalar samaradorligini monitoring qilish tizimini takomillashtirish, investitsion portfelni diversifikatsiyalash, banklarning moliya bozoridagi ishtirokini faollashtirish uchun puxta investitsion siyosat ishlab chiqish, investitsion loyihalar ekspertizasini samarali tashkil etish orqali banklar rentabelligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Banklar investitsion portfelini samarali boshqarish, investitsion faoliyat bilan bog'liq risklarni minimallashtirish, banklarning dividend siyosati va foiz siyosatida investorlar bilan bog'liq munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilganiga qaramasdan, banklar investitsion portfelidagi harakatsiz aktivlarni kamaytirish, yuqori likvidli aktivlarga resurslarni yo'naltirish, xorijiy banklar bilan hamkorlikda yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, banklarning resurs bazasini kengaytirish masalalari kompleks va tizimli o'rganilmaganligi, mazkur yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etish, banklar faoliyatini transformatsiya qilish, ustav kapitalini bosqichma-bosqich oshirish sharoitida qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini kuchaytirish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, strategik xorijiy investorlarni jalb qilish va moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Tijorat banklarining jamg'armalarni investitsiyalarga safarbar qilish hamda ularni moliyaviy va

<sup>1</sup> [https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024\\_overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_overview_ru.pdf)

iqtisodiy nuqtayi nazardan eng samarali sohalarni moliyalashtirishga yo'naltirishni ta'minlovchi moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish"<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali ijrosini ta'minlash, eng avvalo investitsion portfel diversifikatsiyasini oshirish, tijorat banklarining investitsion portfeli sifatini va loyihalarining samaradorligini baholash amaliyotini yaxshilash, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali bank daromadlari hajmini oshirish hamda investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi ("loyihalar fabrikasi")ni joriy qilishning o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, shuningdek, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2018-yil 21-dekabrda PQ-4071-son “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tijorat banklarining investitsiya faolligini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlardan F.Allen, G.Gale, J.Keyns, M.S.Smimova, L.I.Lukyanov, A.I.Karapetyan, A.L.Lazarenko, A.I.Balabanov, S.E.Ovsyannikova, O.I.Lavrushin, N.N.Martinenko kabilar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi PF-5992-son farmoni.

<sup>3</sup> Allen, F., and G. Gale. “Financial Markets, Intermediaries and Intertemporal Smoothing”. *Journal of Political Economy* 105 (1997), 523–546.; Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. - М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с.; Смирнова М.С. Развитие инвестиционной деятельности Российских коммерческих банков в посткризисных условиях: автореф. дис... канд. экон. наук. – Саратов, 2011. – 38 с.; Лукьянов Л.И. Инвестиционная деятельность коммерческих банков и направления её развития / Л.И. Лукьянов // Вестник евразийской науки. – 2024. – Т. 16. – № 2.; Карапетян А.И. Совершенствование инвестиционной политики коммерческих банков в условиях реализации антикризисных программ: автореф. дис... канд. экон. наук. – Москва, 2011. – С.9-10.; Лазаренко, А.Л. Управление инвестиционной деятельностью коммерческих банков: основные направления / А.Л. Лазаренко // Вестник ОрелГАУ. - 2010 - №1 (10). - С. 50-52.; Балабанов И.Т. Банковское дело. СПб.: Питер, 2009. 304 с.; Овсянникова, С.Е. Инвестиционная деятельность коммерческого банка, проблемы в ее осуществлении / С.Е. Овсянникова, Т.А.



Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Z.Abdullayeva, N.X.Jumayev, N.G'.Karimov, A.A.Omonov, B.T.Berdiyarov, O.B.Sattarov, F.Dodiyev, M.Axmedov, I.X.Kamilova, Sh.M.Rabimqulov, J.P.Bo'riyev, I.I.Jo'rayev va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida tijorat banklari investitsiya faoliyatining ayrim nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va olib borilgan tadqiqotlarda, raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning moliya bozoridagi ishtirokini faollashtirish uchun puxta investitsion siyosat ishlab chiqish, investitsion portfelni samarali boshqarish va investitsion faoliyat bilan bog'liq risklarni minimallashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish sharoitida moliya-kredit munosabatlarini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

tijorat banklari investitsion faoliyatining iqtisodiy mohiyatini va nazariy jihatlari tadqiq etish;

tijorat banklarining investitsiya faoliyatini belgilovchi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish;

tijorat banklari investitsiya faoliyatining shakllari va tamoyillarini tadqiq qilish;

bank tizimining investitsion faoliyatini tahlil etish;

---

Акимочкина. - 2015 г. - 6 стр.; Лаврушин, О.И. Банковское дело: учебник / О.И. Лаврушин, Н.И. Валенцева [и др.]; под ред. О.И. Лаврушина. - 12-е изд. - Москва: Кнорус, 2018. - 800 с.; Н.Н. Мартыненко. Банковское дело в 2 ч. Часть 2: учебник для СПО [Текст] / Н. Н. Мартыненко, О. М. Маркова, О.С. Рудакова, Н.В. Сергеева. — 2-е изд. - Москва: Издательство Юрайт, 2019. - 368 с.

<sup>4</sup> Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2017. - 732 b.; Jumayev N.X., Karimov N.G'. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2011-yil.; Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2008.; Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. — Toshkent, 2020. - B. 30.; Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasin takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. - Toshkent, 2018. - B. 25-26.; Dodiyev F. Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari, "Iqtisod va moliya", Toshkent, 2014, №3; Axmedov M. "Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investitsion faolligini oshirish masalalari", "Iqtisod va moliya", Toshkent. №10, 2011.; Kamilova I.X. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirishning dolzarb masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2019-yil.; Rabimqulov Sh.M. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. -T: TMI, 2024. - 58 b.; J.P.Bo'riyev. Tijorat banklarining fond bozoridagi faolligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafi doktori dissertatsiyasi avtoreferati. -T: TMI, 2023. - 52 b.; Jo'rayev I. O'zbekistonda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017-yil.

tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini tahlil qilish;

tijorat banklarining investitsion faoliyati joriy holatini tahlilini amalga oshirish;

tijorat banklarida investitsiya siyosatini shakllantirish va samaradorligini oshirish istiqbollari o'rganish;

tijorat banklari investitsion faoliyatini tashkil etishning xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlil etish va ulardan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

tijorat banklari investitsion salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlarini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida tijorat banklarining investitsiya faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik, grafik-tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

tijorat banklarining investitsion faoliyatdan oladigan daromadi hajmini oshirish va risklilik darajasini pasaytirish maqsadida bank tomonidan uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozimligi asoslangan;

tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishda korxonalar ustav kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalarni ko'paytirish taklif etilgan;

tijorat banklarining investitsion salohiyatini oshirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli barqaror resurslarni jalb etish maqsadida tijorat banklarining muddatli depozitlari hajmini 10 foizga oshirish orqali bankning investitsion resurslar bazasini kengaytirish taklif etilgan;

tijorat banklari investitsion portfeli daromadlilikini oshirish maqsadida banklar tomonidan past nominal bahoda sotib olingan qimmatli qog'ozlarni real bahosi oshganda sotish lozimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tijorat banklarining kredit va investitsion portfeli diversifikatsiyasini oshirish, bank daromad manbalarini ko'paytirish, muammoli kreditlar (NPL) hajmini kamaytirish tavsiya etilgan;

tijorat banklarining investitsion portfeli sifatini va loyihalarning samaradorligini baholash amaliyotini yaxshilash, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda bank tomonidan investitsion faoliyatni monitoring qilishning dastlabki (ex ante), oraliq (interim) va yakuniy (ex post) bosqichli tizimidan foydalanish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirishda sho'ba korxonalarni tashkil etish va ular ishtirokida investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;



yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xorijiy davlatlar banklari bilan birgalikda sinditsiyalashtirilgan kreditlar bo'yicha resurslar jalb etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ularni iqtisodchi olimlarning tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Toshkent" RFB va tijorat banklari ma'lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tijorat banklari faoliyatida investitsion siyosatni ishlab chiqish, portfel diversifikatsiyalashuv darajasini oshirish va banklar investitsion faoliyatini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda fundamental asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar va tavsiyalar banklar investitsion faolligini kuchaytirishda resurs bazasini mustahkamlash, investitsion faoliyatdan olinadigan daromad hajmini oshirish va risklilik darajasini pasaytirish bo'yicha ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlarda hamda banklar investitsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bakalavr va magistratura talabalari uchun "Bank ishi", "Pul va kredit", "Investitsiya" kabi fanlarning mavzularini takomillashtirishda qo'llash imkoniyatining mavjudligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tijorat banklarida investitsion faollikni oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarining investitsion faoliyatdan oladigan daromadi hajmini oshirish va risklilik darajasini pasaytirish maqsadida bank tomonidan uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish taklifi natijasida "O'zsanoatqurilishbank" ATBning davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalari hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 24,5 foizga oshgan holda 1305 mlrd. so'mga yetgan ("O'zbekiston Sanoat-qurilish banki" ATBning 2024-yil 29-noyabrdagi 10-10-08/13892-son ma'lumotnomasi);

tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishda korxonalar ustav kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalarni ko'paytirish taklifi natijasida "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan korxonalarning ustav kapitaliga qo'yilmalarining bank investitsion portfelidagi ulushi 2022-yildagi 7,9 foizdan 2023-yilda 12,6 foizga yetgan, mazkur faoliyatdan olingan daromad esa 5,2 mlrd. so'mga yoki 36 foizga oshgan ("O'zbekiston Sanoat-qurilish banki" ATBning 2024-yil 29-noyabrdagi 10-10-08/13892-son ma'lumotnomasi);

tijorat banklari investitsion portfeli daromadlilikini oshirish maqsadida banklar tomonidan past nominal bahoda sotib olingan qimmatli qog'ozlarni real bahosi oshganda sotish taklifi. Buning natijasida "O'zsanoatqurilishbank" ATBning xo'jalik yurituvchi subyektlar ustavidagi 1418867 dona aksiyalarini

sotilishi tufayli 2023-yilda 1909,5 mlrd. so'mlik daromad olishga erishilgan ("O'zbekiston Sanoat-qurilish banki" ATBning 2024-yil 29-noyabrdagi 10-10-08/13892-son ma'lumotnomasi);

tijorat banklarining investitsion salohiyatini oshirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli barqaror resurslarni jalb etish maqsadida tijorat banklarining muddatli depozitlari hajmini 10 foizga oshirish orqali bankning investitsion resurslar bazasini kengaytirish taklifi natijasida "O'zsanoatqurilishbank" ATBning muddatli depozitlari hajmi 2023-yilda 7,9 trln. so'mni tashkil etgan holda 2022-yilga nisbatan 632,8 mlrd. so'mga oshgan ("O'zbekiston Sanoat-qurilish banki" ATBning 2024-yil 29-noyabrdagi 10-10-08/13892-son ma'lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan – jami 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 3 ta va xorijiy jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tijorat banklari investitsiya faoliyatining umumnazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, tijorat banklari investitsion faoliyatining nazariy jihatlarini, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini belgilovchi o'ziga xos xususiyatlar hamda tijorat banklari investitsiya faoliyatining shakllari va tamoyillari kabi masalalar yoritilgan.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, uning tarmoq va sohalaridagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishda investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Mazkur masalani ijobiy hal etishda tijorat banklarining investitsion faoliyati alohida ahamiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatimizda tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyatini takomillashtirish, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, korxonalar faoliyatiga zamonaviy texnika va texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish va shu asosda iqtisodiyotning tarmoq hamda sohalarini tarkibiy

jiatdan o'zgartirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar faollik bilan amalga oshirilmoqda.

Tijorat banklari investitsiya faoliyatining mohiyatini tadqiq etishga bag'ishlangan qator tadqiqotlarda ushbu tushunchaning mohiyatini izohlashga nisbatan turlicha yondashuvlar qayd etilgan. Xorijiy iqtisodchilar tomonidan ham banklarning investitsiya faoliyatini ta'riflashda turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, M.V.Chinenova banklarning investitsiya faoliyatini "ikki turdagi xizmatlar ko'rsatish biznesi: qimmatli qog'ozlarni chiqarish yoki ularni birlamchi bozorga joylashtirish orqali naqd pul mablag'larini ko'paytirish; ikkilamchi bozorda mavjud qimmatli qog'ozlarni xaridorlar va sotuvchilarning brokerlar va (yoki) dilerlar funksiyalarini bajarishi" sifatida ifodalaydi<sup>5</sup>.

E.J.Dolan, K.D.Kempbell va R.J.Kempbellarning fikriga ko'ra, bank investitsiyalari deganda odatda uzoq muddatga qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'lar tushuniladi<sup>6</sup>. Xuddi shu fikmi P.S.Rose va D.V.Kolarilar ham ta'kidlagan.

A.L.Lazarenko tijorat banklarining investitsiya faoliyati bank daromadini oshirish maqsadida qimmatli qog'ozlarni chiqarish yoki ishlab chiqarishga investitsiya qilish, shuningdek, brokerlik va boshqa xizmatlar ko'rsatish, korxonalar ustidan nazorat qilishni o'z ichiga oladigan jarayon, deb hisoblaydi<sup>7</sup>.

I.N.Dmitriyeva bank investitsiyalari deganda tijorat banklari resurslarini joylashtirishning barcha yo'nalishlari va daromad olish maqsadida ma'lum muddatga mablag'larni joylashtirish bo'yicha operatsiyalarni nazarda tutadi<sup>8</sup>. Birinchi holda, investitsiyalar tijorat banki aktiv operatsiyalarining butun majmuasini, ikkinchisida – uning muddatlilikini o'z ichiga oladi.

S.E.Ovsyannikovaning fikriga ko'ra, bank investitsiya faoliyati – bu to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita daromad olish uchun bank o'z mablag'larini muayyan muddatga real yoki moliyaviy aktivlarni sotib olishga yo'naltirishga qaratilgan faoliyatdir<sup>9</sup>. Shunday qilib, bank investitsiya faoliyati tushunchasini unga nafaqat bank mablag'larini qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish jarayonini qo'shgan holda, balki daromad olish maqsadida real yoki moliyaviy aktivlarni sotib olishga ham e'tibor qaratish orqali kengaytiradi.

K.S.Thirumalai va U.Chandra tijorat banklarining investitsiya faoliyatini tadqiq qilgan holda samarali investitsiya siyosati riskni minimallashtirish orqali

<sup>5</sup> Инвестиции [Текст]: учебное пособие / Под ред. М.В. Чиненова. – Москва: КноРус, 2011. – 368 с.

<sup>6</sup> Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика / Долан Э. Дж., Кэмпбелл К.Д., Кэмпбелл Р. Дж. / Пер. с англ. В. Лукашевича и др.; Под общ. ред. В. Лукашевича. – М.: Туран, 1996. – 448с


<sup>7</sup> Лазаренко А.Л. Управление инвестиционной деятельностью коммерческих банков: основные направления / А.Л. Лазаренко // Вестник ОрелГАУ. – 2010. – №1 (10). – С. 50-52. [URL: <https://trreconomic.ru/journal/article/809/>].

<sup>8</sup> Дмитриева И.Н. Сущность инвестиционной деятельности коммерческого банка /И.Н. Дмитриева // Молодой ученый. — 2012. — №8. — С. 94-96. [URL: <https://trreconomic.ru/journal/article/809/>].

<sup>9</sup> Овсянникова С.Е. Инвестиционная деятельность коммерческого банка, проблемы в ее осуществлении / С.Е.Овсянникова, Т.А.Акимочкина. - 2015 г. - 6 стр. – [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.scienceforum.ru/2015/906/7818> (дата обращения: 10.08.2016 г.). [URL: <https://trreconomic.ru/journal/article/809/>].



tijorat bankining maksimal foydasini oshirishda muhim manbalardan biri, deb ta'kidlaydilar<sup>10</sup>.



**1-rasm. Bank investitsion faoliyati yo'nalishlari<sup>11</sup>**

M.D.Korotayev banklarning investitsiya faoliyati borasidagi tadqiqotlariga ko'ra, bunday operatsiyalarni qisqa va uzoq muddatda daromad olish maqsadida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish hamda investitsiya loyihalari va investitsiya kreditlarini likvidlikni saqlash nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlagan<sup>12</sup>. Shunday qilib, banklarning investitsion operatsiyalari mohiyatini qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar va investitsion kreditlarni ham qo'shgan holda ta'riflagan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan F.Dodiyevning fikriga ko'ra, banklarning investitsiya faoliyati – bu bank investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun

<sup>10</sup> K.S.Thirumalai and Uthaya Chandar (2014) Investment Policy by Commercial Banks, Global Journal for Research Analysis, Volume-3, Issue-11, Nov Special Issue -2014, ISSN No 2277 – 8160.

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>12</sup> Коротаев М.Д. Особенности инвестиционных операций банковских организаций /М.Д. Коротаев // Проблемы современной науки и образования, №2 (32) / 2015. – 2 стр. [URL: <https://reconomic.ru/journal/article/809/>].

mablag'larni joylashtirishi bilan bog'liq faoliyatidir. Banklarning investitsiya faoliyatini boshqa investorlar faoliyatidan farqli tomoni shundaki, ular investitsiyani jalb qilingan mablag'lar evaziga amalga oshiradilar<sup>13</sup>.

Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, bankning o'z va/yoki jalb qilingan moliyaviy resurslarini o'z nomidan aksiyadorlik aktivlariga investitsiya qilishdan iborat bo'lgan operatsiyalarni investitsiya sifatida ta'riflaydilar. Mazkur ta'rifni kengaytirgan holda ular ushbu operatsiyalarga bankning o'z mablag'larini boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish, bunday qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish va boshqarishdan tashqari narxlarni shakllantirish, investitsiya riskini baholash va investitsiyalarni loyihalashni ham kiritishadi.

Banklarning investitsion faoliyatini izohlashdagi iqtisodchi olimlar tomonidan keltirilgan yondashuvlarni tadqiq etish asosida tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga o'z nomidan, o'z hisobidan va o'z tashabbusi bilan tijorat bankining qimmatli qog'ozlar chiqarishi va investitsiyalashi yoki ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, shuningdek, vositachilik va boshqa xizmatlar ko'rsatish, foyda olish, korxonalar ustidan nazoratni qo'lga kiritish yoki boshqa foydali samaraga erishish maqsadida yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqish jarayoni, deb ta'riflash mumkin.

Tijorat banklari aholi va xo'jalik yurituvchi tashkilotlarning mablag'larini jalb qilishda resurslarni foyda olish, likvidlikni saqlash, risklarni kamaytirish va aktivlarni diversifikatsiya qilish shartlarida joylashtirishlari kerak. Tijorat banklarining investitsiyalari, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalari ushbu talablarga javob beradi.

Tijorat banklarining investitsiya siyosati investitsiya faoliyati maqsadli tizimini shakllantirish va ularga erishishning eng samarali usullarini tanlashni nazarda tutadi. Tashkiliy jihatdan u investitsiya aktivlarining maqbul hajmlari va tuzilishini ta'minlashga, riskning maqbul darajasida ularning rentabelligini oshirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar majmui sifatida ishlaydi.

Dissertatsiya ishining **"Tijorat banklarida investitsion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishning joriy holati tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida bank tizimining investitsion faoliyatiga oid ko'rsatkichlar tadqiq etilgan, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati hamda tijorat banklarida investitsion faoliyatni amalga oshirish holati tahlil etilgan.

Tijorat banklarining investitsion faolligi investitsiya faoliyatining asosiy maqsadlarini shakllantirish, shuningdek, ularga erishishning eng samarali usullarini tanlash bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda moliya bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirishda asosan uzoq muddatli kreditlari bilan ishtirok etadilar. Banklarning bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlari

---

<sup>13</sup> Додиев Ф. Тижорат банкларининг инвестиция фаолиятини ривожлантириш йўллари. Тошкент: «Иқтисод ва молия», 2014. №3, 23-28 б.

uzoq muddatli kreditlar hisoblanib, ular aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida beriladi.

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yilmalarining tarkibida yuz berayotgan sifat o'zgarishlarga baho berish uchun kreditlarning muddatini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Tijorat banklari kredit portfelining 87 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etmoqda. Bunday holat, birinchidan, tijorat banklarining kreditlash faoliyatini tobora rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi; ikkinchidan, investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayoniga banklarning faol jalb etilganligini ko'rsatadi; uchinchi-dan, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiyalarni moliyalashtirish uchun tijorat banklari kreditlariga bo'lgan talabining oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish imkoniyati, birinchi navbatda, ularning resurs bazasi yetarliligiga bog'liq bo'ladi. Mamlakatimiz tijorat banklari resurs bazasining birinchi qismi kapitaldan iborat bo'lsa, ikkinchi qismi esa depozitlardan iborat bo'ladi. So'nggi yillarda tijorat banklari kapital bazalari ham, depozit bazalari ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2019-yilda jami depozitlar hajmi 2023-yilda 241,6 trln. so'mni tashkil etgan holda 2019-yilga nisbatan 150,6 trln. so'mga oshgan. Bu holat, mijozlarning bank tizimiga bo'lgan oshishi, depozit stavkalarining daromadlilik darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Shuningdek, so'nggi yillarda tijorat banklarining jami kapitali hajmi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, jumladan, jami kapital hajmi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan qariyb ikki barobarga oshgan holda 97,1 trln. so'mni tashkil etgan.

#### 1-jadval

##### Tijorat banklari depozit va kapitali hajmining o'zgarishi, (mlrd. so'm)<sup>14</sup>

| Ko'rsatkichlar | 2019y. | 2020y.  | 2021y.  | 2022y.  | 2023y.  |
|----------------|--------|---------|---------|---------|---------|
| Depozitlar     | 91 009 | 114 747 | 156 190 | 216 738 | 241 687 |
| Kapital        | 51 031 | 58 351  | 70 918  | 79 565  | 97 079  |

2023-yil yakuniga ko'ra bank tizimining jami depozitlari hajmining 50 foizi, jami kapitalning 65 foizi davlat ulushi mavjud banklarning (o'nta tijorat banki) salmog'iga to'g'ri keladi. Shuningdek, bank tizimi jami aktivlarining 68 foizi, jami kreditlarning 71 foizi ham aynan mazkur banklar hissasiga to'g'ri kelgan. Davlat ulushi mavjud bo'lmagan boshqa tijorat banklarining resurs bazasi cheklanganligi tufayli ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birgalikda qayd etish joizki, tijorat banklarida depozit mablag'lari umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, ularning bazasini uzoq muddatli depozitlar hisobiga yanada mustahkamlash lozim.

Chunki respublikamiz tijorat banklarida talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlar hajmidagi ulushi 40 foizdan yuqoriligicha qolmoqda. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining fikriga ko'ra, talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlar hajmidagi ulushi 30 foizdan oshmasligi lozim. Aks

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



holda muddatli mablag'lar yetishmaydi va bu tijorat banklarining kreditlash salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2-jadval

**Tijorat banklaridagi depozitlar qoldig'i (turlari bo'yicha, mlrd. so'm)<sup>15</sup>**

| Ko'rsatkichlar | Jami    | Shu jumladan:          |           |          |
|----------------|---------|------------------------|-----------|----------|
|                |         | talab qilib olinguncha | jamg'arma | muddatli |
| 01.01.2020 y.  | 91 009  | 40 603                 | 8 494     | 41 912   |
| 01.01.2021 y.  | 114 747 | 53 819                 | 11 116    | 49 812   |
| 01.01.2022 y.  | 156 190 | 69 208                 | 13 746    | 73 236   |
| 01.01.2023 y.  | 216 738 | 100 683                | 23 290    | 92 765   |
| 01.01.2024 y.  | 241 687 | 88 036                 | 24 051    | 129 599  |

Tijorat banklari investitsion faolligini oshirishga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida resurs bazasining mustahkamligi, xususan, kapital hajmi jihatdan barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (Basel Committee on Banking Supervision) tomonidan tijorat banklari nazoratiga oid xalqaro standart talablariga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda tijorat banklari kapital monandligiga oid me'yoriy hujjatlarga ko'ra tijorat banklari kapitali asosiy va qo'shimcha kapitalga ajratilgan. Shunga muvofiq asosiy kapital barqaror moliyalashtirish manbalaridan hisoblanadi. Bu jarayonda banklar tomonidan investitsion kreditlarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri sifatida asosiy kapital hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

3-jadval

**Bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi ko'rsatkichlari<sup>16</sup>**

| Ko'rsatkichlar nomi                            | 2021 y.       |                | 2022 y.       |                | 2023 y.        |                |
|------------------------------------------------|---------------|----------------|---------------|----------------|----------------|----------------|
|                                                | mlrd. so'm    | ulushi, foizda | mlrd. so'm    | ulushi, foizda | mlrd. so'm     | ulushi, foizda |
| <b>I darajali kapital</b>                      | <b>58 624</b> | <b>83,5</b>    | <b>67 793</b> | <b>81,3</b>    | <b>84 911</b>  | <b>80,2</b>    |
| <i>Asosiy kapital</i>                          | <i>58 429</i> | <i>83,2</i>    | <i>67 598</i> | <i>81,0</i>    | <i>84 866</i>  | <i>80,1</i>    |
| <i>Qo'shimcha kapital</i>                      | <i>195</i>    | <i>0,3</i>     | <i>195</i>    | <i>0,2</i>     | <i>45</i>      | <i>0,0</i>     |
| <b>II darajali kapital</b>                     | <b>11 567</b> | <b>16,5</b>    | <b>15 620</b> | <b>18,7</b>    | <b>21 004</b>  | <b>19,8</b>    |
| <b>Jami regulyativ kapital</b>                 | <b>70 191</b> | <b>100</b>     | <b>83 413</b> | <b>100</b>     | <b>105 914</b> | <b>100</b>     |
| <i>Kapital monandlilik darajasi</i>            | <i>17,5 %</i> |                | <i>17,8 %</i> |                | <i>17,5 %</i>  |                |
| <i>I darajali kapital monandlilik darajasi</i> | <i>14,6 %</i> |                | <i>14,5 %</i> |                | <i>14,1 %</i>  |                |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bank tizimining jami kapitali monandlilik darajasi ko'rsatkichlari barqaror sur'atlarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2023-yil yakunlari bo'yicha bank tizimida jami

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

regulyativ kapital miqdori 106 trln. so'mni va tavakkalchilikka tortilgan aktivlar 604 trln. so'mni, kapital yetarliligi ko'rsatkichi 17,5 foizni (minimal talab 13 foiz) tashkil etgan. Bank tizimining asosiy kapitali 2021-yilda 58,4 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2023-yilda 84,8 trln. so'mga teng bo'lgan holda 26,4 trln. so'mga yoki 45,2 foizga oshgan. Bu holat, tijorat banklarining investitsion kreditlarni moliyalashtirish salohiyatining ortganligidan dalolat beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari orasida tijorat banklari alohida ajralib turadi. Chunki, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida o'z aksiyalari, obligatsiyalarini emissiya qilish, veksellar, depozit va jamg'arma sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarish, investor sifatida, qimmatli qog'ozlarni sotib olish hamda bozorning professional ishtirokchisi sifatida brokerlik, dilerlik, depozitariy va trast kabi xizmatlarni ko'rsatishi mumkin<sup>17</sup>.

#### 4-jadval

**2019–2023-yillarda fond bozoridagi bitimlar summasining sohalar kesimidagi ulushi, (mlrd. so'm)<sup>18</sup>**

| Sohalar nomi      | Yillar       |            |              |            |               |            |               |            |               |            |
|-------------------|--------------|------------|--------------|------------|---------------|------------|---------------|------------|---------------|------------|
|                   | 2019y.       |            | 2020y.       |            | 2021y.        |            | 2022y.        |            | 2023y.        |            |
|                   | Summa        | % da       | Summa        | % da       | Summa         | % da       | Summa         | % da       | Summa         | % da       |
| <b>Banklar</b>    | 319,5        | 72,8       | 326,6        | 56,5       | 312,6         | 24,8       | 2308,6        | 47,9       | 971,9         | 35,8       |
| <b>Lizing</b>     | 0,08         | 0,0        | 4,23         | 0,7        | 0,4           | 0,0        | 15,1          | 0,3        | 13,9          | 0,5        |
| <b>Sanoat</b>     | 39,5         | 9,0        | 13,5         | 2,4        | 95,1          | 7,5        | 53,9          | 1,1        | 108,4         | 4,0        |
| <b>Agrosanoat</b> | 27,8         | 6,4        | 44,8         | 7,8        | 40,2          | 3,2        | 237,9         | 4,9        | 597,7         | 22,0       |
| <b>Aloqa</b>      | 0,06         | 0,0        | 0,12         | 0,0        | 0,32          | 0,0        | 0,07          | 0,0        | 37,0          | 1,4        |
| <b>Sug'urta</b>   | 6,7          | 1,5        | 49,1         | 8,5        | 36,4          | 2,9        | 87,1          | 1,8        | 77,2          | 2,8        |
| <b>Qurilish</b>   | 35,9         | 8,2        | 15,9         | 2,8        | 641,2         | 50,9       | 1924,3        | 40,0       | 17,7          | 0,7        |
| <b>Transport</b>  | -            | -          | 2,2          | 0,4        | 0,03          | 0,0        | 0,02          | 0,0        | 66,5          | 2,5        |
| <b>Energetika</b> | -            | -          | 14,1         | 2,5        | 98,9          | 7,8        | 19,6          | 0,4        | 119,4         | 4,4        |
| <b>Boshqalar</b>  | 9,09         | 2,1        | 107,2        | 18,6       | 35,3          | 2,8        | 169,3         | 3,5        | 702,7         | 25,9       |
| <b>Jami</b>       | <b>438,8</b> | <b>100</b> | <b>578,1</b> | <b>100</b> | <b>1260,5</b> | <b>100</b> | <b>4816,2</b> | <b>100</b> | <b>2712,7</b> | <b>100</b> |

Fond bozorining yirik emitentlari aynan tijorat banklari bo'lib, ushbu tashkilotlarga umumiy bitimlar summasining salmoqli qismi tegishli hisoblanadi. 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin-ki, fond bozoridagi asosiy ulush tijorat banklariga tegishli bo'lib, 2019-yilda 72,81 foiz, 2020-yilda 56,5 foiz, 2021-yilda 24,8 foiz, 2022-yilda 47,9 foiz hamda 2023-yilda 35,8 foizni tashkil etgan. 2020-yilda amalga oshirilgan shartnomalar summasi 578,15 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilga nisbatan 31,7 foizga ko'paygan. 2021-yilda tijorat banklaridan ko'ra qurilish sohasidagi kompaniyalar qimmatli qog'ozlari nisbatan ko'proq sotilgan (24,8 foizga 50,9 foiz). 2021–2022-yillarda 3 tadan, 2023-yilda 6 ta tijorat banklarining aksiyalari bo'yicha bitimlar imzolangan. Tijorat banklar mamlakatimiz fond bozorining eng yirik emitentlaridan biri hisoblanishini yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.

<sup>17</sup> Бикүлов Г.Р. Инвестиционные стратегии банка на рынке ценных бумаг: содержание и роль / В.Н. Едренова, Г.Р. Бикүлов // Финансы и кредит. 2008. - №32. - С. 30-34.

<sup>18</sup> <https://www.uzse.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini yetakchi tijorat banklaridan hisoblangan “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik tijorat banki faoliyati orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur tijorat banki iqtisodiyotning yoqilg‘i-energetika, kimyo, metallurgiya va yengil sanoat kabi tarmoqlarida istiqbolli investitsion loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

#### 5-jadval

**2021–2023-yillarda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB kapitalidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobot (mlrd. so‘m)<sup>19</sup>**

| Yillar | Ustav kapitali | Moliyaviy aktivlarni qayta baholash zaxirasi | Taqsimlan-magan foyda | Jami   | Sho‘ba tashkilotlar-dagi nazorat qilinmaydigan ishtirok | Jami kapital |
|--------|----------------|----------------------------------------------|-----------------------|--------|---------------------------------------------------------|--------------|
| 2021   | 4640,0         | 14,1                                         | 2291,9                | 6946,0 | 6,2                                                     | 6952,2       |
| 2022   | 4640,0         | 14,5                                         | 2925,5                | 7580,0 | 1,1                                                     | 7581,1       |
| 2023   | 4634,4         | 23,7                                         | 3781,7                | 8439,8 | 0,1                                                     | 8439,9       |

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zsanoatqurilishbankning ustav kapitali hajmi 2023-yilda 2021-yilga nisbatan 5,6 trln. so‘mga kamaygan. Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli qarorida bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran besh yuz milliard so‘mni tashkil etishi belgilangan.

#### 6-jadval

**“O‘zsanoatqurilishbank” mijozlari hisobvaraqlaridagi mablag‘lar hajmi, (mlrd. so‘mda)<sup>20</sup>**

| Ko‘rsatkichlar                                                    | 2021-yil       | 2022-yil       | 2023-yil       |
|-------------------------------------------------------------------|----------------|----------------|----------------|
| <b>Davlat va jamoat tashkilotlari</b>                             | <b>7167,1</b>  | <b>7459,1</b>  | <b>5908,3</b>  |
| - joriy hisobvaraqlar                                             | 4148,0         | 3844,5         | 2006,5         |
| - muddatli depozitlar                                             | 3019,1         | 3614,6         | 3901,8         |
| <b>Boshqa yuridik shaxslar</b>                                    | <b>3090,5</b>  | <b>3638,3</b>  | <b>3916,8</b>  |
| - joriy hisobvaraqlar                                             | 2378,8         | 2814,6         | 2812,3         |
| - muddatli depozitlar                                             | 711,7          | 823,7          | 1104,5         |
| <b>Jismoniy shaxslar</b>                                          | <b>3303,8</b>  | <b>4231,3</b>  | <b>4503,4</b>  |
| - joriy hisobvaraqlar                                             | 949,2          | 1305,5         | 1512,8         |
| - muddatli depozitlar                                             | 2354,6         | 2925,8         | 2990,6         |
| <b>Mijozlarning jami mablag‘lari</b>                              | <b>13561,4</b> | <b>15328,7</b> | <b>14328,5</b> |
| <b>Muddatli depozitlar jami</b>                                   | <b>6085,4</b>  | <b>7364,1</b>  | <b>7996,9</b>  |
| <b>Muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi, foizda</b> | <b>44,9</b>    | <b>48,0</b>    | <b>55,8</b>    |

O‘zsanoatqurilishbankning tahlil qilinayotgan davrdagi ustav kapitali hajmi nizom talablariga nisbatan to‘qqiz barobardan yuqorini tashkil etadi.


<sup>19</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning yillik hisobot ma’lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.

<sup>20</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning yillik hisobot ma’lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.



Tijorat banklarining investitsion kreditlar ajratish salohiyati eng avvalo, resurs bazasi yetarliligiga bog'liq bo'ladi. Tijorat banklari resurs bazasi kapital va depozitlar hajmiga bog'liq bo'ladi. Uzoq muddatli depozitlar tijorat banklari investitsion salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan tijorat banklarida uzoq muddatli depozitlarni jalb etishga alohida e'tibor qaratish orqali ularning bazasini mustahkamlash maqsadga muvofiq.

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2023-yilda bank tomonidan jalb etilgan jami depozitlarning hajmi 14,3 trln. so'mni tashkil etgan holda 2022-yilga nisbatan 1 trln. so'mga yoki 6,5 foizga kamaygan. Biroq bank depozitlari tarkibida uzoq muddatga jalb etilgan mablag'lar hajmi 2021–2023-yillar oralig'ida barqaror ravishda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, muddatli depozitlar hajmi 2022-yilda jami 7,3 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2023-yilda 7,9 trln. so'mni tashkil etgan holda 632,8 mlrd. so'mga oshgan. Shuningdek, muddatli depozitlar hajmining oshishi fonida ularning jami depozitlardagi ulushida ham o'sish tendensiyasi kuzatilgan, jumladan, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 55,8 foizni tashkil etib 2022-yilga nisbatan 7,8 foizli punktga oshgan. O'zsanoatqurilishbankning investitsion resurslar bazasini kengaytirish maqsadida bankning muddatli depozitlari hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozim. Bu holat istiqbolda bankning resurslar bazasini mustahkamlash hamda investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.



**2-rasm. “O'zsanoatqurilishbank” ATBning qimmatli qog'ozlarga yo'naltirgan investitsiyalari hajmining o'zgarishi, (mlrd. so'mda)<sup>21</sup>**

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra bankning qimmatli qog'ozlarga yo'naltirgan investitsiyalari 3004,8 mlrd. so'mni tashkil etgan holda 2022-yilga nisbatan 90,7 mln. so'mga yoki 3,1 foizga oshgan. 2023-yilda bank portfelining asosiy qismi, ya'ni 2232,2 mlrd. so'mi yoki 74,3 foizini davlat g'aznachilik majburiyatlari va obligatsiyalari tashkil etgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra bankning qimmatli qog'ozlarga yo'naltirgan investitsiyalari bo'yicha olingan jami daromadi hajmi 377,2 mlrd. so'mni tashkil etgani holda 2022-yilga nisbatan 83,4 mlrd. so'mga yoki 28,4 foizga oshgan.

<sup>21</sup> “O'zsanoatqurilishbank” ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning davlat qimmatli qog‘ozlariga  
yo‘naltirilgan investitsiyalari, (mlrd. so‘m)<sup>22</sup>**

| Ko‘rsatkich    | 2021          |            | 2022          |            | 2023          |            |
|----------------|---------------|------------|---------------|------------|---------------|------------|
|                | Summasi       | Ulushi     | Summasi       | Ulushi     | Summasi       | Ulushi     |
| Uzoq muddatli  | 239,0         | 23,4       | 1036,1        | 54,2       | 1315,0        | 88,8       |
| Qisqa muddatli | 780,8         | 76,6       | 876,5         | 45,8       | 166           | 11,2       |
| <b>Jami</b>    | <b>1019,8</b> | <b>100</b> | <b>1912,6</b> | <b>100</b> | <b>1481,0</b> | <b>100</b> |

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan 2021–2023-yillarda davlat qimmatli qog‘ozlariga yo‘naltirilgan investitsiyalarning muddatiga ko‘ra xarakterida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Xususan, 2023-yilda uzoq muddatli davlat qimmatli qog‘ozlariga kiritilgan investitsiyalar jamiga nisbatan 88,8 foizni tashkil etgan holda 2021-yilga nisbatan 65,4 foizli punktga oshgan. 2023-yilda uzoq muddatli davlat qimmatli qog‘ozlariga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan 278,9 mlrd. so‘mga oshgan holda 1315,0 mlrd. so‘mga yetgan. Mazkur holat, tijorat bankining investitsion faoliyatdan oladigan daromadi hajmini oshirish va risklilik darajasini pasaytirish imkonini beradi.

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning davlat qimmatli qog‘ozlariga  
yo‘naltirilgan investitsiyalarining daromadlilik darajasi (mlrd. so‘m)<sup>23</sup>**

| Ko‘rsatkich    | 2021         |            | 2022         |            | 2023         |            |
|----------------|--------------|------------|--------------|------------|--------------|------------|
|                | Summasi      | Ulushi     | Summasi      | Ulushi     | Summasi      | Ulushi     |
| Uzoq muddatli  | 46,9         | 33,2       | 46,9         | 18,9       | 249,9        | 69,9       |
| Qisqa muddatli | 94,4         | 66,8       | 200,7        | 81,1       | 107,7        | 30,1       |
| <b>Jami</b>    | <b>141,3</b> | <b>100</b> | <b>247,6</b> | <b>100</b> | <b>357,6</b> | <b>100</b> |


Bank tomonidan investitsion faoliyatni samarali tashkil etilishi natijasida ushbu faoliyat natijalaridan daromadga erishilmoqda. Xususan, 2022-yilda davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha bankning daromadi – 269,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda mazkur ko‘rsatkich 357,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan holda o‘tgan yilga nisbatan 88,6 mlrd. so‘mga yoki 33 foizga oshgan. Jumladan, 2021–2022-yillarda qisqa muddatli davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha olingan daromadlar salmoqli ulushni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha olingan daromadlarning qariyb 70 foizi uzoq muddatli obligatsiyalar ulushiga to‘g‘ri kelgan. Bankning investitsion faoliyatdan olgan umumiy daromadlarining 66,2 foizi aynan uzoq muddatli davlat qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar hisobidan shakllangan.

Bankning investitsion faoliyatdan olgan umumiy daromadlarining 19,6 mlrd. so‘mi qaram xo‘jalik jamiyatlariga, qo‘shma korxonalarga va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalariga to‘g‘ri kelgan holda oldingi yilga nisbatan 5,2 mlrd. so‘mga oshgan.

<sup>22</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning yillik hisobot ma‘lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.

<sup>23</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning yillik hisobot ma‘lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.





**3-rasm. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan korxona va tashkilotlarning ustav kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmining o‘zgarishi, (mlrd. so‘m)<sup>24</sup>**

2023-yil yakuniga ko‘ra bankning korxona va tashkilotlarning ustav kapitaliga kiritilgan investitsiyalari hajmi jami 379,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan. 2023-yilda bank tomonidan korxonalar korxona va tashkilotlarning ustav kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi 148,3 mlrd. so‘mga yoki 64,1 foizga oshgan. Mazkur holat, korxona va tashkilotlar ustav kapitaliga investitsiyalar kiritishni faollashtirish orqali bankning investitsion faolligini oshirishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining investitsion portfelida norentabel aktivlar salmog‘ini kamaytirish orqali shakllangan resurslarni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga yo‘naltirish bo‘yicha moliyaviy qarorlarni qabul qilish mumkin. Xususan, ushbu moliyaviy strategiya natijasida bankning investitsion faoliyatdan olinadigan daromadi hajmini oshirishga erishiladi. Bu jarayonda tijorat banklari tomonidan past nominal bahoda sotib olingan qimmatli qog‘ozlarni real bahosi oshganda sotish maqsadga muvofiq bo‘lib, uning oqibatida norentabel aktivlar ulushini kamaytirish orqali shakllangan mablag‘larni investitsion faoliyatning boshqa turlariga yo‘naltirish imkoniyati yuzaga keladi.

Quyidagi jadvalda O‘zsanoatqurilishbank ATB tomonidan daromadlilik darajasi past bo‘lgan “UzMED-lizing” va “Qurilishmashlizing” AJlarning aksiyalarini sotish natijasida shakllangan daromad hajmiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘radigan bo‘lsak, “UzMED-lizing” AJning qimmatli qog‘ozlari 2008-yilda xarid qilingan bo‘lib, 2023-yilda 249994 ta aksiya bo‘yicha jami 250 mln. so‘m sotish va sotib olish o‘rtasida daromadga erishilgan. “Qurilishmashlizing” AJning 1106367 ta aksiyalari 2017-yilda xarid qilingan bo‘lib, 2023-yilda investitsion portfel tarkibidan chiqarilishi natijasida 1659,5 mln. so‘m daromad olingan. Ushbu aktivlarni bank investitsion portfeli tarkibidan chiqarilishidan maqsad “UzMED-lizing” va “Qurilishmashlizing” AJlari tomonidan bankka to‘lanayotgan dividendlar hajmi yildan-yilga kamayib borgan.

<sup>24</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning yillik hisobot ma‘lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.



**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan norentabel aksiyalarni sotish orqali shakllangan mablag‘lar hajmi<sup>25</sup>**

| Kompaniya nomi           | Xarid qilingan qimmatli qog‘ozlar soni | Bitta aksiya bahosi (so‘m) | Jami qiymati (mln. so‘m) | Sotilgan qimmatli qog‘ozlar soni | Bitta aksiya bahosi (so‘m) | Jami qiymati (mln. so‘m) | Sotish va sotib olish o‘rtasidagi farq (mln. so‘m) |
|--------------------------|----------------------------------------|----------------------------|--------------------------|----------------------------------|----------------------------|--------------------------|----------------------------------------------------|
| “UzMED-lizing” AJ        | 249994                                 | 1000                       | 250                      | 249994                           | 2000                       | 500                      | 250                                                |
| “Qurilishmash lizing” AJ | 1106367                                | 1000                       | 1106,4                   | 1106367                          | 2500                       | 2765,9                   | 1659,5                                             |
| <b>Jami</b>              | <b>1356361</b>                         | <b>-</b>                   | <b>1356,4</b>            | <b>1356361</b>                   | <b>-</b>                   | <b>3265,9</b>            | <b>1909,5</b>                                      |

Qayd etish joizki, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini kengaytirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad faoliyat ko‘lamini kengaytirish va daromad hajmini oshirish hisoblanadi. Shu boisdan tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish, investitsion portfel tarkibidagi norentabel aktivlarni kamaytirish, aksiyalar paketiga egalik qilish asosida korporativ boshqaruvda ishtirok etishga qaratilgan investitsion faoliyat olib borish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida tijorat banklarida investitsiya siyosatini shakllantirish va samaradorligini oshirish istiqbollari hamda zamonaviy sharoitda tijorat banklari investitsion faolligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlari bayon etilgan.

Investitsion jarayonlarda banklar ishtirokini faollashtirish zarurati moliyaviy va real sektorning o‘zaro bog‘liqlikda samarali rivojlanishi bilan belgilanadi. Investitsion jarayonlarda banklar ishtirokining asosiy yo‘nalishi istiqbolli loyihalarga bank mablag‘larini yo‘naltirish, investitsion maqsaddagi kreditlarni ajratish, ulushli ishtirok etish va qimmatli qog‘ozlarga mablag‘larni qo‘yishni o‘z ichiga oladi.

Banklar investitsion faoliyatining asosiy maqsadi investitsion qo‘yilmalarning ehtimolga yaqin bo‘lgan risklilik darajasida ushbu faoliyatdan foyda me‘yorini oshirish sifatida ifodalanadi. Shu boisdan, tijorat banklari o‘z faoliyatida investitsiya siyosatini samarali yuritish va uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi<sup>26</sup>. Bunda avvalo, ishlab chiqilgan investitsion siyosatni puxta tahlil qilish va istiqboldagi natijalarini baholash hamda uning amaldagi holatini doimiy monitoring qilgan holda samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etib borishga alohida ahamiyat berish lozim.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni samarali yuritish hamda natijadorligini oshirish borasidagi dolzarb masalalardan biri investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni baholash va ular

<sup>25</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning yillik hisobot ma‘lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.

<sup>26</sup> Емельянов А.Б. Инвестиционная деятельность коммерческих банков: понятие, виды и значение // Молодой ученый. - 2017. - №52. - С. 84-88.

ta'sirini kamaytirish hamda mazkur jarayon bilan bog'liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Bu borada tijorat banklari investitsion faoliyat doirasida monitoring olib borish tizimini takomillashtirishi lozim. Bu esa investitsion faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldini olishga hamda investitsion loyihalar natijadorligini oshirishga imkon yaratadi.

Milliy iqtisodiyotidagi hozirgi vaziyat investitsiya faoliyatini faollashtirish zarurligini taqozo etmoqda, bunda banklar vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni to'plash va qayta taqsimlashda vositachi sifatida asosiy rol o'ynashi kerak. Shu sababli, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishning masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda banklarning investitsiya faoliyatida paydo bo'lgan tendensiyalar moliya tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlariga mos bo'lgan yangi innovatsion texnologiyalar, yondashuvlar va moliyalashtirish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Investitsion jarayonda bank faoliyatini faollashtirishga to'sqinlik qiluvchi muammolardan biri aksariyat tijorat banklari kapitallashuv darajasining nisbatan pastligi hisoblanadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarining jami kapitali miqdori 97,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning 65,1 foizi yoki 63,2 trln. so'mi 7 ta tijorat bankiga to'g'ri kelgan.

#### 10-jadval

##### Tijorat banklarining aktivlar hajmi bo'yicha guruhlanishi<sup>27</sup>

| Ko'rsatkichlar nomi       |                    | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y. |
|---------------------------|--------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Aktivlar, jami            | Banklar soni       | 30      | 32      | 33      | 31      | 35      |
|                           | Summa (trln. so'm) | 272,7   | 366,1   | 444,9   | 556,7   | 652,1   |
| 3 trln. so'mgacha         | Banklar soni       | 13      | 15      | 14      | 10      | 13      |
|                           | Summa (trln. so'm) | 9,5     | 13,1    | 12,6    | 9,6     | 12,5    |
| 3 dan 10 trln. so'mgacha  | Banklar soni       | 10      | 8       | 7       | 7       | 8       |
|                           | Summa (trln. so'm) | 54,9    | 51,8    | 42,3    | 42,4    | 57,6    |
| 10 dan 30 trln. so'mgacha | Banklar soni       | 4       | 4       | 7       | 8       | 7       |
|                           | Summa (trln. so'm) | 72,1    | 63,0    | 112,8   | 140,4   | 129,1   |
| 30 trln. so'mdan yuqori   | Banklar soni       | 3       | 5       | 5       | 6       | 7       |
|                           | Summa (trln. so'm) | 136,2   | 238,0   | 277,2   | 364,3   | 452,9   |

Hozirgi kunda tijorat banklarining atigi 20 foizi (7 ta tijorat banki) mamlakat bank tizimining barcha aktivlarining 70 foizini nazorat qiladi va aynan ana shu investitsion jarayon ishtirokchilari investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishi iqtisodiyotni investitsion kreditlashni amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Jami aktivlari hajmi 30 trln. so'mdan yuqori bo'lgan tijorat banklari soni 7 tani tashkil etadi. Qolgan 28 ta tijorat banklarining jami bank aktivlaridagi ulushi 30 foizni tashkil etadi. Xususan, aktivlari hajmi 3 trln. so'mgacha bo'lgan 13 ta tijorat banklarining aktivlari 12,5 trln. so'mga yoki jami bank aktivlarining 1,9 foizga teng bo'lgan. Bu holat aksariyat tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

<sup>27</sup> "O'z sanoatqurilishbank" ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.

**Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar va ularning muddatiga ko'ra tarkibi<sup>28</sup>**

| Ko'rsatkichlar                          | 2019 y. | Foizda | 2020 y. | Foizda | 2021 y. | Foizda | 2022 y. | Foizda | 2023 y. | Foizda |
|-----------------------------------------|---------|--------|---------|--------|---------|--------|---------|--------|---------|--------|
| Kreditlar, jami (trln. so'mda)          | 211,6   | 100    | 277,0   | 100    | 326,4   | 100    | 390,0   | 100    | 471,4   | 100    |
| Qisqa muddatli kreditlar (trln. so'mda) | 17,9    | 8,5    | 28,2    | 10,2   | 33,4    | 10,2   | 51,1    | 13,1   | 61,2    | 13,0   |
| Uzoq muddatli kreditlar (trln. so'mda)  | 193,6   | 91,5   | 248,7   | 89,8   | 293,0   | 89,8   | 338,9   | 86,9   | 410,2   | 87,0   |

Tijorat banklari tomonidan 2023-yilda iqtisodiyotni moliyalashtirish maqsadlariga jami 81,4 trln. so'm yoki 2022-yilga nisbatan qariyb 20,8 foizga ko'p kredit mablag'lari yo'naltirilib, jami kreditlar hajmi 471,4 trln. so'mni tashkil etgan. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar tarkibida qisqa muddatli kreditlar 13 foizni, uzoq muddatli kreditlar esa 87 foizni tashkil etgan. 2023-yilda qisqa muddatli kreditlar hajmi 2022-yilga nisbatan 19,7 foizga, uzoq muddatli kreditlar esa 21 foizga oshgan. Bu holat iqtisodiyot real sektorining uzoq muddatli kreditlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligini, jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda investitsion maqsadlarda moliyaviy resurslarni jalb etishga zaruriyat yuqoriligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan bo'lgan aktivlar, kreditlar va kapital hajmiga oid ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, jami ajratilgan kreditlarning 58,3 foizi beshta bank hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, unda O'zmilliybank (21,1 foiz), O'zsanoatqurilishbank (12,1) va Agrobank (11,6 foiz) kabi banklar yuqori ulushni (qariyb 45 foiz) egallagan. Shuningdek, bank tizimining jami aktivlari va kapitali hajmida ham ushbu banklar yuqori ulushni egallagan (11-jadval). Mazkur tahliliy ma'lumotlarga asoslangan holda qayd etish mumkinki, investitsion jarayonlardagi faollik aynan moliyaviy jihatdan barqarorligi yuqori bo'lgan tijorat banklariga hissasiga to'g'ri keladi.

Bank tizimi faoliyatiga oid ko'rsatkichlarning bu kabi holati aksariyat tijorat banklarning investitsion salohiyati iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlarini qondirishga qodir, deb taxmin qilish uchun asos bo'ladi, ammo mavjud risklar investitsiya faolligini cheklaydi, bu esa banklar investitsiya faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rish mumkinki, bugungi kunda ko'pchilik tijorat banklari o'z ixtiyorida yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yetarli bazaga ega emas. Bank tizimining investitsiya faoliyati tahlili uning sekin faollashuvidan dalolat beradi. Mamlakatimizda banklarning investitsiya faolligini cheklovchi asosiy omillar sirasiga quyidagilar kiradi:

<sup>28</sup> "O'zsanoatqurilishbank" ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.



banklar resurs bazasining qisqa muddatli xarakterda ekanligi;  
qarz oluvchilarning to'lovga layoqatlilik darajasining pastligi;  
kreditlar bo'yicha ta'minot obyektlarining nolikvidliligi;  
investitsion risklarning yuqori darajasi;  
kreditlar bo'yicha yuqori foiz stavkalari;  
davlat tomonidan tijorat banklari investitsiya faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mexanizmining yaratilmaganligi.

Banklarning investitsiya faoliyatini faollashtirish uchun davlat, birinchi navbatda, banklar faoliyatiga zarur mablag'larni to'plashga ko'maklashishi; ikkinchidan, ularga investitsiya faoliyati riskini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratishi; uchinchidan, investitsiya faoliyatining rentabelligini oshirishga yordam berishi lozim.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida mamlakatimiz tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilishi lozim:

qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatini tashkil etish modelini ishlab chiqish;

moliyaviy xizmatlar bozorida investitsiya xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini kengaytirish va investitsiya banklarini rivojlantirish;

bank moliyaviy resurslarini kichik va o'rta biznesga investitsiya qilish.

Fikrimizcha, tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish va ularning investitsion faolligini oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

tijorat bankining investitsion siyosatini ishlab chiqishda investitsion faollikni oshirish va istiqbolli investitsion loyihalarni moliyalashtirishga alohida ahamiyat berish;

investitsion loyihalarning risklilik va foydalilik darajasini aniqlashda xorijiy tajribalardagi mavjud ta'sirchanlikning yuqori usullarini qo'llash;

banklarning investitsion loyihalar samaradorligini monitoring qilishga qaratilgan faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish;

moliyaviy risklarni boshqarish ichki tizimiga alohida ahamiyat bergan holda xarajat va daromadlar mutanosibligini ta'minlash asosida banklar investitsion faoliyati natijadorligini yanada oshirish;

samaradorligi yuqori bo'lgan investitsion loyihalarga kapital qo'yilma kiritish orqali investitsion portfelni diversifikatsiyalashga alohida ahamiyat berish.

Tijorat banklari investitsiyalarni amalga oshirishda faqatgina daromadlilik darajasini emas, balki bankning likvidlilik darajasini saqlab turishga ham ahamiyat qaratishlari lozim. Mazkur jarayonda investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli investitsion kreditlarni o'z kapitallari va uzoq muddatli depozitlar hisobiga moliyalashtirishlari maqsadga muvofiq. Bu holat tijorat banklarida likvidlilik bilan bog'liq muammolarni oldini olishga imkon yaratadi.

## XULOSA

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati bu – loyihalarni moliyalashtirish, qimmatli qog'ozlar chiqarish, moliyaviy vositachilik va boshqa xizmatlar ko'rsatish, korxonalar ustav kapitalida ulushga ko'ra ishtirok etish, investitsion maqsadlarda uzoq muddatli kreditlar ajratish hamda qo'shimcha samaradorlikka erishish maqsadida yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqish jarayonidir.

2. Tijorat banklarining investitsiya siyosati investitsiya faoliyati maqsadli tizimini shakllantirish va ularga erishishning eng samarali usullarini tanlashni nazarda tutadi. Tashkiliy jihatdan u investitsiya aktivlarining maqbul hajmlari va tuzilishini ta'minlashga, riskning maqbul darajasida ularning rentabelligini oshirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar majmui sifatida ishlaydi.

3. Investitsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayoni – muayan risk darajasida investitsiya aktivlarining rentabelligini oshirishga yordam beradigan chora-tadbirlar majmuidan iborat bo'ladi. Shu boisdan, tijorat banklarining investitsion faolliqi investitsiya faoliyatining asosiy maqsadlarini shakllantirish, shuningdek, ularga erishishning eng samarali usullarini tanlash bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

4. Bankning investitsiya faoliyatini kengaytirishdan ko'zlangan asosiy maqsad faoliyat ko'lamini kengaytirish, sof bank faoliyati doirasidan tashqariga chiqarish va daromad hajmini kengaytirish hisoblanadi. Bank qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri (daromadlarni dividendlar, foizlar yoki qayta sotishdan olingan foyda shaklida) yoki bilvosita (bank tomonidan sho'ba va bog'langan korxonalar orqali nazorat qilinadigan bozor ulushini kengaytirish hamda mijozlarga ularning aksiyalari paketiga egalik qilish asosida korporativ boshqaruvda ishtirok etish orqali) ko'rinishlarda daromad oladi.

5. Investitsion faoliyatni samarali tashkil etishda davlatning moliya-kredit tizimi muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, bank tizimining investitsion faoliyatdagi ishtiroki ortib bormoqda. Bank tizimi va umuman iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi banklarning investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantiradi va faollashtiradi.

6. Tijorat banklarining investitsion siyosati investitsion faoliyatning maqsadli yo'nalishlari tizimini shakllantirish va ularga erishishning samarali usullarini tanlashni o'z ichiga oladi. Investitsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish investitsion aktivlarning tuzilmasi hamda hajmini maksimal darajada oshirish, ehtimolga yaqin bo'lgan risklilik darajasida ularning foydaliligi o'sishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi sifatida ifodalanadi.

7. Tijorat banklarining investitsion siyosati uzoq muddatli murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon makroiqtisodiy va investitsion muhit holati, soliqqa tortish xususiyatlari, bank faoliyatini tartibga solish kabi tashqi shart-sharoitlarni, shuningdek, bank resurs bazasining tuzilmasi va hajmi, uning rivojlanish vazifalari va maqsadlari, turli aktivlarning daromadlilik, risk omillari kabi ichki shart-

sharoitlarni prognozlash hamda chuqur tahliliy yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

8. Investitsion faoliyatni amalga oshirish sharoitlarining o'zgarishi ishlab chiqilgan investitsion siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun doimiy monitoring o'tkazishni talab etadi. Investitsion dastur tuzilgan vaqtida istiqbolda ichki va tashqi omillar o'zgarishining barcha majmuasini qamrab olmasligi mumkin. Shuning uchun, investitsion dasturning o'zgaruvchanligi investitsiyalarni boshqarish jarayonida joriy o'zgartirishlar yo'li bilan ta'minlanadi. Bu holat, qisqa muddatli davrda alohida qo'yilmalarning samaradorligini baholash, investitsion loyihalardan chiqish imkoniyatlarini aniqlash, noqulay sharoit yuzaga kelganda kapitalni reinvestitsiyalashni taqozo etadi.

9. Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni samarali yuritish hamda natijadorligini oshirish borasidagi dolzarb masalalardan biri investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni baholash va ular ta'sirini kamaytirish hamda mazkur jarayon bilan bog'liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Bu borada tijorat banklari investitsion faoliyat doirasida monitoring olib borish tizimini takomillashtirishi lozim. Bu esa investitsion faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldini olishga hamda investitsion loyihalar natijadorligini oshirishga imkon yaratadi.

10. Tijorat banklari investitsiyalarni amalga oshirishda faqatgina daromadlilik darajasini emas, balki bankning likvidlilik darajasini saqlab turishga ham ahamiyat qaratishlari lozim. Mazkur jarayonda investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli investitsion kreditlarni o'z kapitallari va uzoq muddatli depozitlar hisobiga moliyalashtirishlari maqsadga muvofiq. Bu holat tijorat banklarida likvidlilik bilan bog'liq muammolarni oldini olishga imkon yaratadi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019.I.17.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

**АБИЕВ ДАВРОН ИЛХОМОВИЧ**

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ  
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ**

**08.00.07 – “Финансы, денежное обращение и кредит”**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**город Ташкент – 2025 год**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована под номером B2023.3.PhD/Iqt3242 в Высшей аттестационной комиссии.**

Диссертация выполнена в Самаркандском институте экономики и сервиса.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Аганиязов Жасурбек Хамидович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Хайдаров Низомиддин Хамраевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Тошпулатов Даврон Акромович**  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Академия государственного управления при  
Президенте Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится в 16 часов 02.05 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc.03/30.12.2019.1.17.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100000, город Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871)234-53-34; факс: (99871) 234-46-26; e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за номером 1638). Адрес: 100000, город Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871)234-53-34; факс: (99871) 234-46-26; e-mail: [admin@tsue.uz](mailto:admin@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан « 17 » 04 2025 года.  
(Реестр протокола рассылки № 31 от 17 « 04 » 2025 года).



**Т.З. Тешабаев**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор

**А.Х. Пардаев**  
Вр.и.о. ученого секретаря Научного совета  
по присуждению ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор

**И.Н. Кузиев**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор экономических наук,  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Происходящие в мире макроэкономические изменения, конъюнктурные колебания на международных финансовых рынках, высокие инфляционные ожидания, глобальное сокращение инвестиционных потоков и рост доли проблемных кредитов в кредитных портфелях банков негативно сказываются на эффективности инвестиционной деятельности коммерческих банков. «В 2023 году объем прямых иностранных инвестиций сократился на 2 процента по сравнению с 2022 годом на глобальном уровне и составил 1,3 трлн. долларов США, объем проектного финансирования, имеющего важное значение для развития инфраструктуры, сократился на 26 процентов»<sup>1</sup>. Данный показатель обусловлен снижением инвестиционной активности финансовых институтов во многих странах мира из-за конъюнктурных колебаний в глобальной экономике. В этих условиях коммерческим банкам необходимо привлекать дешевые ресурсы для повышения инвестиционной активности, повышать активность банков на рынке ценных бумаг, направлять ресурсы в низкорисковые и высокодоходные активы, а также повышать качество инвестиционного портфеля, уделять особое внимание использованию синдицированных кредитов при финансировании крупных инвестиционных проектов.

В мире особое внимание уделяется повышению рентабельности банков за счет повышения эффективности инвестиционной деятельности коммерческих банков, направления ресурсов в «зеленые» проекты, определения уровня риска и прибыльности инвестиционных проектов, совершенствования системы мониторинга эффективности инвестиционных проектов, диверсификации инвестиционного портфеля, разработки тщательной инвестиционной политики для активизации участия банков на финансовом рынке, эффективной организации экспертизы инвестиционных проектов. Несмотря на то, что проведен ряд научных исследований по вопросам эффективного управления инвестиционными портфелями банков, минимизации рисков, связанных с инвестиционной деятельностью, укрепления связей с инвесторами в дивидендной политике банков и политике процентных ставок, вопросы сокращения неработающих активов в инвестиционных портфелях банков, направления ресурсов в высоколиквидные активы, финансирования крупных инвестиционных проектов совместно с зарубежными банками, расширения ресурсной базы банков не изучались комплексно и системно, что свидетельствует о необходимости проведения научных исследований в этих направлениях.

В Узбекистане особое внимание уделяется повышению инвестиционной привлекательности банков и внедрению новых стандартов банковского обслуживания, трансформации деятельности банков, усилению их активности на рынке ценных бумаг в условиях поэтапного увеличения

---

<sup>1</sup> [https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024\\_overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_overview_ru.pdf)



уставного капитала, повышению популярности финансовых услуг, привлечению стратегических иностранных инвесторов, созданию необходимых условий для обеспечения постепенной интеграции финансовой системы в международные финансовые рынки. Определены такие важные задачи, как «Повышение роли коммерческих банков как финансовых посредников, обеспечивающих мобилизацию сбережений для инвестиций и перенаправление их на финансирование наиболее эффективных с финансово-экономической точки зрения отраслей»<sup>2</sup>. В этой связи актуальными являются такие вопросы, как обеспечение эффективной реализации этих задач, в первую очередь повышение диверсификации инвестиционного портфеля, совершенствование практики оценки качества инвестиционного портфеля коммерческих банков и эффективности проектов, увеличение объема доходов банков за счет совершенствования системы управления рисками, устранение существующих проблем в секторе с учетом особенностей внедрения механизма поддержки инвестиционных проектов («фабрики проектов»).

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О Стратегии »Узбекистан-2030»», 12 мая 2020 года №УП-5992 «О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы», 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 23 марта 2028 года №ПП-3620 «О дополнительных мерах по повышению популярности банковских услуг», от 21 декабря 2018 года №ПП-4071 «О мерах по обеспечению финансовой устойчивости, повышению эффективности деятельности и совершенствованию кредитной политики коммерческих банков», от 12 сентября 2017 года №ПП-3270 «О мерах по дальнейшему развитию и повышению устойчивости банковской системы республики», а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Научные исследования по теоретико-методическим вопросам повышения инвестиционной активности коммерческих банков проводили такие зарубежные ученые-экономисты, как F.Allen, G.Gale, Дж.Кейнс, М.С.Смирнова, Л.И.Лукьянов, А.И.Карапетян,

---

